

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING TARBIYAVIY ISHLARGA RAHBARLIK QILISHI.

Djurabekova Aziza Abduvaliyevna

Yashnobod tuman 55-DMTT direktori

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbarlik qilish va tashkil etishning yo'llari va usullari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim, rahbar, zamonaviy usullar, uzlucksiz ta'lim.*

Аннотация: В данной статье описаны пути и методы руководства и организации дошкольных образовательных организаций.

Ключевые слова: дошкольное образование, лидер, современные методы, непрерывное образование.

Maktabgacha ta'lism tashkilotlari oila va jamiyatning bolalarga g'amxo'rlik qilish, milliy hamda mintaqqa xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash va rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida tashkil etiladi. Tashkilotlar mustaqil ravishda, o'z tashabbusi bilan o'z faoliyatiga taalluqli, agar ular qonunchilikka va pedagogik prinsiplarga mone'lik qilmasa har qanday qaror qabul qilishga haqlidir. Maktabgacha ta'lism tashkilotlari tarbiyaviy-ta'limi ishlar sifati, bolalar va ota-onalar huquqiga jamiyat hamda Davlat manfaatlariga rioya qilish uchun mas'uldir.

Maktabgacha ta'lism tashkilotlari-murakkab tarmoq bo'lib, direktoring undagi roli, faoliyati ko'p qirralidir. Tashkilot direktori-maktabgacha ta'lism tashkilotining tashkilotchisi, rahbari, malakali pedagog, uning faoliyati maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarni komil inson qilib tarbiyalash vazifalarini to'laqonli hal etishga qaratilgan. U maktabgacha ta'lism tashkilotlaridagi ta'lism-tarbiyaviy, pedagogik va gigiyenik talablarga muvofiq ravishda amalga oshirilishi uchun zarur lozim-sharoitlarni ta'minlaydi. O'z jamoasida ishchanlik, maqsadga qaratilgan inoqlik vaziyatini yaratadi. Ularga umumiy

rahbarlik qiladi. Direktor o'z ishida davlatimiz va Maktabgacha va maktab ta'lif vazirligi tomonidan qabul qilingan qaror, qonunlarga amal qiladi va o'z ustida ijodiy ravishda ishlashni amalga oshiradi. Yuksak onglilik va siyosiy yetuklik, tamoyillilik, o'ziga va qo'l ostidagilarga talabchanlik - bu direktorga qo'yiladigan asosiy talablardir.

Davlat maktabgacha ta'lif tashkiloti muassis tomonidan tashkil etiladi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi. Davlat organlari, shu jumladan mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda qonun hujjatlariga muvofiq davlat maktabgacha ta'lif muassasasining muassisleri bo'lishi mumkin. Davlat maktabgacha ta'lif tashkilotiga bevosita rahbarlik qilish O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lif vazirligi bilan kelishilgan holda tegishlichcha Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lif vazirligi, viloyatlar maktabgacha va amktab ta'lif boshqarmalari hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'lif bosh boshqarmasi tomonidan tayinlanadigan mudir tomonidan amalga oshiriladi. Davlat maktabgacha ta'lif tashkiloti direktori bilan mehnat shartnomasi bir yil muddatga tuziladi.

Davlat maktabgacha ta'lif tashkiloti direktori lavozimiga qo'yiladigan malaka talablari O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lif vazirligi tomonidan belgilanadi. Davlat maktabgacha ta'lif tashkiloti direktori: davlat maktabgacha ta'lif tashkiloti faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi;

-bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish hamda ta'lif- tarbiya jarayonining samarali tashkil etilishini ta'minlaydi;

-davlat maktabgacha ta'lif tashkiloti nomidan faoliyat ko'rsatadi va barcha tashkilotlarda uning manfaatlarini ifodalaydi;

-davlat maktabgacha ta'lif tashkiloti mol-mulkini o'ziga berilgan vakolatlar doirasida tasarruf etadi;

-davlat maktabgacha ta'lif tashkiloti xodimlarini mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq ishga qabul qiladi va ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini bekor qiladi;

-davlat maktabgacha ta'lif tashkiloti xodimlarini moddiy va ma'naviy rag'batlantiradi, ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llaydi; o'z vakolatlari doirasida buyruqlar chiqaradi;

-davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining faoliyatini takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limiga kiritadi;

-davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining moddiy- texnika bazasini mustahkamlash, zamonaviy talablarga javob beradigan inventar, jihoz, o'quv-metodik qo'llanmalar va multimediali vositalar bilan ta'minlash ishlarini tashkil etadi; davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining moliya-xo'jalik faoliyatiga javob beradi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, maktabgacha ta'limning innovatsion shakllarim rivojiantirish maqsadida pedagogik kengash faoliyat ko'rsatadi. Pedagogik kengash a'zolarini saylash tartibi va uning vakolatiga kiradigan masalalar davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti ustavida belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari kadrlarining lavozimi huquqlari va majburiyatları, ularning boshqaruv vakolatlari va vazifalari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, tegishli me'yoriy huj-jatlar, ta'lim tashkoloti Nizomi bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.A. Abdullayev. System of information and communication technologies in the education. Science and world International scientific journal 2 (№ 5), 19-21
2. Abdulkhayevich, A. A. (2020). Challenges, Cluster and Professional Support of Today's Early Educators' through Literacy and Language that Creates a Sense about the Concept of Early Education. International Journal of Word Art, (2).
3. Abdullayev, A. A. (2020). System of information and communication technologies in the education. Science and World, 5(81), 19-21.
4. Abdullayev, A. A. (2020). Cluster method in the development of critical thinking technology in the lessons in primary school. Science and World, 5(81), 16-19.